



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



9(1)/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

9(1)/2025



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 9, sentabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

SERIYA: IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Бушуй Т.А.	Типология учебных словарей с мультимодальными средствами: структура, функции, дидактическая направленность	3
Asadov T.H.	Sifat-ravish “oraliq so‘zlar”ning lug‘atlardagi ifodasi xususida	10
Hamroyeva Sh.M., Ubaydullayeva X.M.	O‘zbek tili yuridik diskursida lisoniy shaxsning ijtimoiy mansubligini ko‘rsatuvchi lisoniy vositalar va ularning sotsiopragmatik tahlili	14
Gulyamova Sh.K.	Sintaktik-semantik analizatorlar yaratish tajribasi	21
Aloyev N.R.	LDA va LSA yordamida tematik modellashirish	25
Ataxanova M.M.	Gastronomik ergonimlar nominatsiyasi	32
Boltayeva G.Sh.	Milliy til – ijtimoiy va madaniy taraqqiyot asosi	36
Fayziyev B.B.	Garri Potter asarida ishlatilgan metaforalar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasidagi muammolar	41
Ismoilova Ch.Sh.	Ingliz leksikografik manbalaridagi turkizmlarning sistem-struktur tahlili	46
Mardonova S.O.	Muallif nutqi metaforalarining struktur-semantik tabiati xususida	51
Murodova S.J.	Incorporating songs and poems into English grammar instruction	56
Nabijonova M.O.	Functions of language	62
Niyazova M.Kh.	Linguistic poetics of onomastic units in English and Uzbek folklore texts	66
Nuriddinova N.M.	O‘zbek tili terminologik tizimida semantik usulda hosil bo‘lgan uzumchilik terminlari	70
Nabijonova M.O.	Causes of motor aphasia	76
Qutbiddinova N.D.	Phraseologisms and emotionality: expressing feelings through idiomatic language	81
Rajabov E.E.	O‘zbek tilida “iltifot” konseptining lingvokognitiv tahlili	86
Rasulova I.A.	Kontrastiv tahlil xususiyatlari va ularning chet tilini o‘rgatishdagi amaliy ahamiyati	91
Ruziyeva M.I.	Bilingval oilalarda o‘zbek tilini saqlash strategiyalari: metodik yondashuv va takliflar	96
Salimova G.A.	Xalqaro onlayn muloqotda madaniyatlararo pragmatika: noto‘g‘ri tushunish holatlari	100
Vakhidova F.S., Urunova I.N.	Frame semantics in crafts terminology (in English and Uzbek languages)	105
Ruziyeva N.X.	A study of politeness in netizens’ instagram comments on posts by Uzbek students: a cyberpragmatic perspective	110
Salimova M.A.	Transformatsiya va sinonimik qurilmalar: sintaktik variantlarning qiyosiy tahlili	115
Usmonova D.F.	The concept of ellipsis and its interpretation in phraseological units	119
Zayniddinova M.F.	Classification and main features of modern English fantasy	124

MUALLIF NUTQI METAFORALARINING STRUKTUR-SEMANTIK TABIATI XUSUSIDA

Mardonova Sarvinoz Oripovna,

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada metafora hodisasi, mazkur hodisa tadqiqi, metaforaning til va nutqqa munosabati, she'riyatidagi metaforalar, xususan, muallif nutqi metaforalari, ularning ifodasi shoirilar ijodidan olingan she'riy parchalar orqali ochib berilgan. O'zbek tilida metafora hodisasi va uning vujudga kelishi asoslari xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilida metaforalar, ularning tabiati, yondosh hodisalarga munosabati haqidagi monografik plandagi ishlarning mavjudligi mazkur hodisa, ular atrofida muammolar yechimiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Sememaning ijtimoiyligi va nutqiy ma'noning individualligi. O'zbek tilida metafora hodisasi va uning vujudga kelishi asoslari xususida bir qator tadqiqotlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: leksema, leksik ma'no, sema, metafora, an'anaviy metafora, muallif nutqi metaforalari, o'xshatish, metonimiya, sinekdoxa, individual metafora, okkazional ma'no.

О СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ПРИРОДЕ МЕТАФОР АВТОРСКОЙ РЕЧИ

Аннотация. В данной статье раскрывается феномен метафоры, исследование этого явления, отношение метафоры к языку и речи, метафоры в поэзии, в частности, метафоры авторской речи, их выражение через поэтические отрывки из произведений поэтов. В узбекском языке проведён ряд исследований по феномену метафоры и основам её возникновения. Наличие работ монографического характера о метафорах в узбекском языке, их природе, отношении к сопутствующим явлениям характеризуется направленностью на решение проблем, связанных с этим явлением. Социальность семемы и индивидуальность речевого значения. Рассматривается ряд исследований феномена метафоры в узбекском языке и оснований её возникновения.

Ключевые слова: лексема, лексическое значение, sema, metafora, традиционная metafora, metafora авторской речи, сравнение, метонимия, sinekdoxa, индивидуальная metafora, окказиональное значение.

ON THE STRUCTURAL-SEMANTIC NATURE OF AUTHOR'S SPEECH METAPHORS

Abstract. This article explores the phenomenon of metaphor, its study, the relationship of metaphor to language and speech, metaphors in poetry, particularly metaphors in author's speech, and their expression as revealed through poetic excerpts from various poets' works. Numerous studies have been conducted on the phenomenon of metaphor in the Uzbek language and the basis of its emergence. The existence of monographic works on metaphors in the Uzbek language, their nature, and relation to associated phenomena is characterized by their focus on addressing the issues surrounding this phenomenon. The sociality of sememes and the individuality of speech meaning are discussed. Several studies on the phenomenon of metaphor in the Uzbek language and the foundations of its emergence are mentioned.

Keywords: lexeme, lexical meaning, seme, metaphor, traditional metaphor, metaphors of author's speech, simile, metonymy, synecdoche, individual metaphor, occasional meaning.

Kirish. So'zlarning ko'chma ma'no ifoda etishi turkiy so'zlarning o'zi kabi qadimiy hodisa sanaladi. Hatto qadimgi turkiy til lug'at qatlamida ham ko'plab so'zlarning qo'shimcha ma'nolar kasb etib ulgurganligi ma'lum. Buni Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asari ham tasdiqlaydi[2].

So'zning ko'chma ma'no kasb etishi til (lug'at qatlami)ning tadrijiy rivoji bilan bog'liq. Bu borada, ya'ni so'z (ma'no)ning serqirraligi [4], leksemaning mazmun plani, leksik ma'no va semantik qism [9,61-67], semema tarkibidagi semalar va ularning ifodasi [6,57-63], sememaning nutqqa xoslanishi, hosila semalarning vujudga kelishi borasida o'zbek tili leksikologiyasi hamda semasiologiyasida yetarlicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

So'z semantik taraqqiyoti, uning mantiqiy-semantik asosda tadqiqi borasida yaqin yillarda qilingan ishlar umumlashmasi sifatida M.Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" asarining nashr etilishi o'zbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasi yutuqlaridan biri bo'ldi. Mazkur manbada leksik ma'no, leksik

ma'noning semantik tarkibi, leksik ma'no taraqqiyoti, hosila ma'no (metafora, metonimiya, sinekdoxa va b.), leksik ma'noning kengayishi va torayishi, leksik ma'noning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, uzual ma'no va okkazional leksik ma'nolar haqida e'tiroflar mavjud [5,284].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O'zbek tilida metafora hodisasi va uning vujudga kelishi asoslari xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilida metaforalar, ularning tabiati, yondosh hodisalarga munosabati haqidagi monografik plandagi ishlarning mavjudligi mazkur hodisa, ular atrofidagi muammolar yechimiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi [7;8].

Ma'lumki, metaforalar so'zlar kabi o'z lingvopoetik xususiyatiga ko'ra doimiy (uzual) va individual metaforalarga bo'linadi. Har ikkala hodisa ham konnotativ ma'no bilan bog'liq. Badiiy matnda so'zdagi konnotatsiya muhim, bu konnotativ ma'noni harakatga keltirish ijodkor mahorati bilan bog'liq [11,32].

Bilamizki, monosemantik leksemaning bir va polisemantik leksemaning bir nechta (bu ham sanoqli) sememasi bo'lib, u nutqiy voqelanganda cheksizlik kasb etadi. Har bir qo'llanishdagi nutqiy ma'no o'ziga xos va qaytarilmas alohidalikdir. Ularning ma'no ifodalari so'zlovchi (muallif) maqsadiga mos holda yuzaga chiqadi. Biroq nutqiy ma'no qanchalik cheksizlik kasb etmasin, uning asosidagi semema alohida, yagonaligicha turaveradi.

Sememaning ijtimoiyligi va nutqiy ma'noning individualligi haqida aytish mumkinki, semema ijtimoiy shartlangan bo'lib, u til jamiyati a'zolarining "umum-mehnat" mahsuli va shu til jamiyati a'zolari uchun birday umumiy. Nutqiy ma'no esa har bir so'zlovchi uchun o'ziga xos – individual. Semema nutqda uni ushbu qo'llanishga xoslovchi turli vosita ta'siriga berilgan va juz'iydashgan holda «ko'rinish» beradi. Sememaning nutqiy ko'rinishida uni nutqqa xoslagan nolog'aviy vositaning ta'sir darajasi turlicha bo'ladi.

Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagidan biri sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rinda ikkinchisi qo'llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, *quyi* so'zi anglatadigan ma'noni *etak* so'zi qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan *etak* so'zi ishlatilgan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jug'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois *qo'ltiq* so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot va fe'lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida *uchmoq* fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigaga o'xshaydi. Shu boisdan *uchmoq* fe'li ifodalagan keyingi ma'no metaforik ma'no.

Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniydashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. *Qanot* (samolyotning qanoti), *og'iz* (qopning og'zi) kabi leksemlarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema. Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin.

Leksema ko'chma ma'noda qo'llanar ekan, uning sememasi tarkibidagi atash semasi so'nib, nutqiy voqelikka mos ravishda ifoda va vazifa semasi kuchayadi.

Konnotativ ma'no leksemaning ifoda semasi bilan uzviylik kasb etadi. Ifoda sema tarkibida mujassamlashgan holda bo'ladi [6,61]. Konnotatsiya badiiyat uchun xizmat qiladi, badiiy ifoda, obrazlilikni ta'minlaydi. Lekin har qanday konnotativ ma'noli so'z ham yozuvchining individual badiiyati uchun xizmat qilavermaydi. Shundan kelib chiqib, manbalarda konnotatsiyaning ikki ko'rinishi: ingerent va adgerent konnotatsiya [1,8] farqlanadi. Ingerent konnotatsiya nutqiy matndan tashqarida ham voqelanadigan, so'zning mavjud bo'lgan konnotativ ma'nosi bo'lsa, adgerent konnotatsiya ma'lum nutqiy matnda hosil bo'ladigan qo'shimcha ma'no sanaladi. Ijodkorlar doim ham ingerent konnotatsiyaga ko'na qolmaydi. Ular individual nutq uslubiyati uchun yangi-yangi ko'chimlar (muallif metaforalari) yaratadilar. Natijada betakror "ohorli" ko'chimlar, badiiy ifodalar yuzaga keladi.

Ayrim manbalarda "ingerent" va "adgerent" terminlari o'rinda "uzual" va "okkazional" ma'no tushunchalari qo'llanadi [5,40-47]. Tilshunos olim M. Mirtojyev ta'kidicha, so'zning uzual ma'nosi hamma vaqt ham umumlashgan xarakterda bo'ladi, okkazional ma'no (individual nutq metaforalari – M.S.) mohiyati bilan nutq hodisasi sanaladi. Aniq ifoda uchun nutqda hosil bo'lgan okkazional ma'no uzual ma'no tomon taraqqiy etadi. U ma'lum nutq sharoitida, ma'lum so'zlar qurshovidagi so'zda hosil bo'ladi [5,46].

M.Mirtojyev bu boradagi fikrlarini "okkazional ma'no har qancha yashamasin va tanilmasin, shu holatidan ko'ra taraqqiy etmaydi, uzual ma'noga o'tmaydi" tarzidagi jumla bilan tugatadi [5,46]. Mazkur fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Bir dalil ahamiyatliki, har qanday qo'shimcha ma'no dastlabki bosqichda,

ilk davrda okkazonal sanaladi, vaqt o'tib bu okkazonallik o'z o'rnini uzuallikka bo'shatib beradi. Xuddi shu fikrni individual metaforalarga nisbatan ham aytish mumkin. Agar mazkur ifodalar mantiqan asosli, shuningdek, til va tafakkur uzviyligi asosida yaratilgan bo'lsa, ularning qo'llanish maydoni kengayishi, asardan asarga o'tishi mumkin. Masalan, *gul yuz* ifodasi mazkur qo'llanishning ilk davrida adgerent (okkazonal) konnotatsiya bo'lganligini izohlashga hojat ham, zarurat ham yo'q, nazarimizda.

Tadqiqot metodologiyasi. Metafora bo'yicha ko'pgina ishlarda mavjud fikrlar deyarli bir-birini takrorlashiga guvoh bo'lamizki, mazkur hodisa borasida amalga oshirilishi lozim ishlar ko'lami keng.

O'zbek tilshunosligida prof. S.Karimovning mazkur masala haqidagi qarashlari ahamiyatli, olimning Zulfiya Isroilova ijodi misolida metafora hodisasiga bir qadar chuqurroq yondashganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tadqiqotchi metafora hodisasi bo'yicha fikr bildirar ekan "metafora ko'chma ma'noda qo'llangan so'zmi yoki so'zni kochma ma'noda qo'llash hodisasimi?" qabilidagi masalani ko'ndalang qo'yadi va metafora hodisasi haqida imkon qadar mantiqiy xulosalarga keladi [3,130-135]. Tadqiqotchi umumiy tilshunoslikdagi metafora haqidagi fikrlarni tahlil qila turib yozadi: "Metafora deganda, ayrim olingan ma'lum bir so'zni tushunish noto'g'ridir. Tilda matndan ajratilgan metafora-so'z yo'q, balki nutq jarayonida, keng ma'noda matnda so'zni metaforik qo'llash hodisasi bor. Metafora deganda ham matndagi metaforizatsiyalashgan so'z tushuniladi" [3,131]. S.Karimov tildagi frazeologizmlar, polisemantik so'zlar, omonim va sinonimlarning ko'payishiga, terminologiyaning boyishiga metaforizatsiya sababchi bo'la olishini aytadi.

Umuman, metafora hodisasi borasida aytilgan fikrlarga tayanib ayta olamizki, bu hodisa badiiy adabiyot tili uchun muhim tasviriy vositalardan sanaladi. Uning evaziga nutqning ifodaviyligi, ta'sirchanligi ortadi, obrazlilik ta'minlanadi.

Tadqiqotimiz asosi bo'lgan iste'dodli shoir Usmon Azim she'riyatida ham metaforalarning ikki ko'rinishi a) an'anaviy metaforalar; b) muallif nutqi metaforalari (o'xshatishlari) uchraydi.

Muallif nutqi metaforalari uzual metaforalar singari o'xshatishga tayanadi. Sir emaski, o'xshatish (sifatlash, epitet) badiiy matnda obrazlilik, ifodaviylilikni ta'minlovchi eng qadimgi tasviriy vositalardan biri sanaladi. O'xshatishda to'rt unsur (o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, o'xshatish vositasi) nazarda tutiladi. Masalan, Usmon Azimning "*Porlar quyosh – Barchinday bir qiz*" misrasida muallif nutqi o'xshatishi kuzatilib, mazkur o'rinda o'xshatishning to'rt unsuri – o'xshatish subyekti (quyosh), o'xshatish etaloni (Barchinday qiz), o'xshatish asosi (Barchinning go'zalligi), o'xshatish vositasi (-day) yaqqol kuzatiladi.

Muallif nutqi metaforalari, odatda, subyektiv sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Til me'yorlariga mos holda yaratilgan individual nutq metaforalari matnda obrazlilik va ifodaviylilikni ta'minlash bilan birga, lug'at qatlamimizning turli ma'no ifodalar bilan boyishiga ham xizmat qila oladi. Badiiy asarda ijodkor tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual metaforalar yuqori estetik qiymatga ega bo'ladi. Ijodkor tomonidan yaratilgan ko'chimlar, asarda individual badiiyat uchun xizmat qiluvchi metaforalar (individual metaforalar) ham perifriza, oksyumoron, jonlantirish va h.k.lar kabi individual poetik vositalardan biri bo'la oladi.

Kuzatishlar ko'rsatdiki, individual nutq metaforalari metaforaning bir ko'rinishi sifatida, odatda, ikki turda uchraydi: a) to'g'ridan to'g'ri, o'xshatish vositalarsiz hosil bo'lgan individual metaforalar; b) o'xshatish vositalari bilan hosil bo'lgan individual metaforalar. Yana bir dalil ahamiyatliligi, ko'pgina individual metaforalar epitet sifatida (ot turkumidagi so'zning belgi ifodasi uchun qo'llanishi sifatida) yuzaga kelganligini kuzatamiz.

Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilish murakkabroq bo'lgan tushunchalarini oydinlashtirishdan iboratdir. Bunda muayyan bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat va holat o'quvchi uchun betakror, go'zal ifodalar bilan namoyon etiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Individual metaforalar she'riyatda muhim o'ringa ega, chunki asil badiiy ma'no individuallikning ko'rinishi, uning tub asosi hisoblanadi. Buning isboti sifatida iste'dodli shoir Usmon Azimning birgina dunyo so'ziga nisbatan 80 ga yaqin sifatlovchi so'z qo'llangani, ularning katta qismi individual metaforalar ekanligini keltirish mumkin. Misollarni kuzatamiz: *aziz dunyo, ayyor dunyo, arzimas dunyo, bag'ri keng dunyo, bedor dunyo, behadik dunyo, borishsiz dunyo, gulkor cholg'u dunyo, gul xor yohu dunyo, gung dunyo, go'zal dunyo, dengizli dunyo, yolg'on dunyo, yolg'onchi dunyo, yorug' dunyo, yo'llarsiz dunyo, kam dunyo, keksa dunyo, kelishsiz dunyo, keng dunyo, kimsasiz dunyo, ko'zi ko'r dunyo, ko'lmak dunyo, kunsiz dunyo, lol dunyo, mayxona dunyo, mard dunyo, mast dunyo, mast-alast dunyo, nafis dunyo, noto'kis dunyo, og'ir dunyo, ona dunyo, osmonsiz dunyo, parishon dunyo, puldunyo dunyo, sag'ir dunyo, saraton dunyo, sarg'aygan dunyo, sehrli dunyo, sovuq dunyo, sog'ingan dunyo, sodda dunyo, temir dunyo, tinch dunyo, toza dunyo, tor dunyo, tosh dunyo, toshdil dunyo, toshli dunyo, to'rt burchak dunyo, uzun sado dunyo, xazonrez dunyo, xo'rlangan dunyo, chin dunyo, she'rsiz dunyo, sho'rlik dunyo, ezgu*

*dunyo, ertakli dunyo, yuraksiz dunyo, yashil dunyo, o'yinchoq dunyo, o'tar dunyo, qavat-qavat dunyo, qon jilg'a dunyo, qonuniy dunyo, qo'shiqchi dunyo, g'azabkor dunyo, g'alva dunyo, g'alvir dunyo, g'arib dunyo, g'urbat dunyo, g'ussali dunyo kabi*¹.

Mazkur misollardan *aziz dunyo, arzimas dunyo, bag'ri keng dunyo, go'zal dunyo, yolg'on dunyo, yolg'onchi dunyo, yorug' dunyo, tor dunyo* kabilar so'zning semantik strukturasiga kiradigan, an'anaviy o'xshatish (ingerent konnotatsiya) hisoblansa, *gung dunyo, yo'llarsiz dunyo, kam dunyo, kelishsiz dunyo, ko'zi ko'r dunyo, ko'lmak dunyo, osmonsiz dunyo, parishon dunyo, puldunyo dunyo, sag'ir dunyo, saraton dunyo, sarg'aygan dunyo, sehrli dunyo, sovuq dunyo, temir dunyo, to'rt burchak dunyo, uzun sado dunyo, ertakli dunyo, yuraksiz dunyo, qavat-qavat dunyo, qon jilg'a dunyo, g'arib dunyo, g'urbat dunyo, g'ussali dunyo* kabilar Usmon Azimning individual metaforalari, nutqiy metaforalar (adgerent konnotatsiya) sanaladi. Ko'rinadiki, nutqiy konnotatsiya original, "ohorli" bo'lib, badiiyligni ta'minlaydi, bir o'qishdayoq ta'sir etadi, diqqatni tortadi va o'quvchini chorlashda xarakterli hisoblanadi.

Ma'lumki, ijodkor "o'z yasamasi"ni – ijod mahsulini shu til egalari lug'at qatlamidan qat'iy o'rin olishi, shu til lug'at tarkibiga o'rnatib qolishini maqsad qilmaydi. U so'zni muayyan bir vaziyat talabiga ko'ra, zarurat mahsuli sifatida yaratadi. Yaratgan yangi so'zlari orqali o'quvchining diqqatini qaratishga, unga estetik zavq ulashishga harakat qiladi. Adabiyotning, xususan, she'riyatning asl maqsadlaridan biri ham shu.

Yuqorida keltirilgan misollardagi yangi epitetlar (nutqiy konnotatsiya) okkazional bo'lib, o'quvchida ijodkor jimjimadorlikka berilgandek taassurot uyg'otishi mumkindir. Ammo ilhomlangan ijodkor doim ham lug'at qatlamidagi mavjud ko'chimga ko'na qolmaydi.

Muallif nutqi metaforalari Usmon Azim she'riyatidagi quyidagi ifodalarda ham kuzatiladi:

1. *Qor – billurtan farishta.* ("Qor")
2. *Bu dunyoning ismi gulmas,*
Puldunyodir bu dunyo. ("Eski qo'shiq")
3. *Azizlik taxtidan tushgan azizim,*
Zulmatgoh xonaning ichida yorim. ("Azizlik taxti")
4. *Chizavergin iymonimni.*
Imongoh yurak oppoq. ("Yurak")

Mazkur misollarda *qor – billurtan farishta, puldunyo dunyo, zulmatgoh xona, imongoh yurak* kabilarni individual metaforalar sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Ko'rinadiki, Usmon Azim ijodidagi yangi ko'chimlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga qo'l kelgan. Shoir polisemantik so'zlardan samarali foydalanib, ular ma'no imkoniyatini kengayishiga ham ma'lum darajada hissa qo'shdi. Mazkur ko'chimlar matnga betakror jarangdorlik va musiqiylik, go'zallik va xalqchilik baxsh etgan. Umuman, Usmon Azim ijodida tuyg'ular ta'sirchanligi va obrazlar teranligini ta'minlashda individual metaforalar alohida o'rin tutgan.

Xullas, badiiy adabiyotda o'rinli, jo'yali, topib aytilgan tasvir, ko'chim – muallif nutqi (individual nutq) metaforalari o'zining emotsionalligi, ta'sirchan va ifodaviyligi, shuningdek, badiiyat va obrazlilikni ta'minlashdagi ahamiyati bilan alohidalik kasb etadi. Shoir Usmon Azimning muallif nutqi metaforalari ta'sirchanligi, "ohorli"ligi, ifodaviyligi, betakrorligi bilan alohidalik kasb etishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Ҳоҷиев А. Тилишунослик терминларининг изоҳли лугати.* –Т.: "Ўз. мил. энцик давлат наشريёти", 2002.
2. *Кошгарий М. Дувону лугатит турк. 3 жилд. С.Муталлибов таҳрири остида.* –Т., 1960-1963.
3. *Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.* – Самарқанд, 2006.
4. *Мадраҳимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. НДА.* –Т., 1993.
5. *Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.* –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
6. *Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.* –Т.: Ўқитувчи, 1995.
7. *Қобулжонов Г. Метафоранинг системавий лингвистик таҳлини. НДА.* –Т., 2000.
8. *Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. НДА.* – С., 2001.
9. *Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик.* –Т.: Ўзбекистон, 1992.

¹ Misol olingan manba: Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърляти мисолида). НД. – С., 2019.

10. Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърляти мисолида). НД. – Самарқанд, 2019.
11. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА .–Т.,2009.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006.